



# Kimyog'ar

Gazeta 1979 yil yanvar oyidan chiqib boshlagan.

1-son (1713)  
2023-yil,  
31-yanvar.

Ijtimoiy-iqtisodiy gazeta



PREZIDENT SHAVKAT  
MIRZIYOYEVNING OLIY  
MAJLIS QONUNCHILIK  
PALATASIGA  
MUHOJAJATNOMASIDAN  
XULOSA

2-bet



История одного  
ВETERАНА...

3-стр.

ВЫСОКАЯ  
КВАЛИФИКАЦИЯ —  
ЗАЛОГ УСПЕШНОЙ  
КАРЬЕРЫ

4-стр.

## “14-YANVAR VATAN HIMOYACHILARI KUNI” JAMIYATDA KENG NISHONLANDI



### ASSALOMU ALAYKUM, HURMATLI ISHCHI-XODIMLAR, QADRLI TADBIR ISHITIROKCHILARI!

Aziz askarlar, serjant va ofitserlar hamda Qurolli Kuchlarimiz faxriylari! Avvalo, barchangizni O'zbekistonimiz hayotidagi qutlug' sana – Vatan himoyachilari kuni va Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganligining 31 yilligi bayrami bilan samimiy tabriklayman! Dunyoda sharaflil kasblar ko'p, ular orasida eng sharaflisi o'z ona Vatani va xalqining tinchligi uchun xizmat qilishdir. Ta'kidlash joizki, bugungi O'zbekistonimizning tinchligi, xotirjamligi, barqarorligi sababchisi Sizday mard maydon o'g'lonlarimiz fidoyiligi hisoblanadi. Shu sababli, Davlatimiz rahbari doimiy ravishda Milliy armiyamiz, Qurolli kuchlarimizni qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor va mablag' sarflab, ilg'or xorijiy tajribalarga ko'ra yuksak jangovar ruhga ega bo'lgan tarkibiy kuchlarimizni yanada e'tirof etadilar. Ularga katta ishonch bildiradilar.

### AZIZ VATANIMIZ POSBONLARI!

Bugungi kunda milliy armiyamiz ming-minglab o'g'lonlarimiz uchun chinakam mardlik, fidoyilik, haqiqiy vatanparvarlik maktabiga aylangan, hech shubhasiz, shu yo'lda erishgan eng katta yutuq'imizdir. Bu haqiqatni yurtimizdagi barcha ota-onalar, butun xalqimiz g'urur bilan, minnatdorchilik bilan e'tirof etmoqda. Ota-onalar faxr va yuksak tuyg'usi bilan o'z farzandlarini Milliy armiyamizda xizmat qilgani yubormoqdalar. Buning negizida O'zbekistonimizning osoyishtaligi yotganligi

va xalqimiz bu oliy ne'mat bo'lmish – tinchlik uchun harakat qilayotganligi bizlarni quvontiradi.

### HURMATLI, KECHAMIZ MEHMONLARI, VATANIMIZ HIMOYACHILARI!

Vatan himoyachisi deganda shu zaminda, ona Vatanimizda tug'ilgan o'g'lonlarimizni barchasini aytishimiz mumkin. Tarixga nazar tashlasak, eng buyuk, jasur sarkardalar, dovyurak askarlar bizning yurtimiz o'g'lonlaridir. Ulardan Amir Timur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi va yana bir qancha Vatanimiz tinchligi yo'lida jon qurbon qilgan, dunyoni larzaga solgan qahramonlarni sanab o'tsak mubolag'a bo'lmaydi. Biz, mustaqil O'zbekiston farzandlari, shunday ajdodlar avlodlari bo'lganimizdan faxrlanamiz.

Azizlar! So'zimizning yakunida yurtimiz, xalqimiz, chegaralarimiz daxlsizligini tun-tun kun, yozning jazirama issig'ida, qishning qahraton sovuq kunlarida himoya qilib kelayotgan arslon yigitlarimizni, Vatan himoyachilarimizni ushbu bayram bilan yana bir bor tabriklayman.

Shu munosabat bilan barchangizga mustahkam sog'liq, oilaviy baxt, tinchlik-xotirjamlik, xizmatlaringizda ulkan muvaffaqiyatlar tilayman. Chegaralarimiz daxlsiz, osmonimiz musaffo bo'lsin! Bayram muborak bo'lsin!

Dilshod MANNONOV,  
“Farg'onaazot” aksiyadorlik jamiyati  
boshqaruvi raisi.

Barchaga ma'lumki, 1992-yilning 14-yanvarida O'zbekiston Parlamenti mamlakat hududidagi barcha harbiy qismlar, texnikalar va harbiy ta'lim muassasalari O'zbekiston Respublikasi yurisdiksiyasiga o'tkazilishi haqida qaror qabul qilingan. Shu tariqa Vatanimiz Qurolli kuchlariga poydevor qo'yilgan edi.

Ushbu muhim sanaga ham joriy yilda ropparosa 31 yil to'ldi. Bu vaqt ichida barcha sohalarda kabi harbiy yo'nalishda ham ko'plab ishlar amalga oshirilganligi, Milliy armiyamiz, Qurolli kuchlarimizga katta e'tibor va mablag'lar sarflanayotganligi hech kimga sir emas. Bir so'z bilan aytganda, tarkibiy kuchlarimiz doimo e'zoz va e'tirofda bo'lgan.

Jamiyatimizda 14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni va Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganligining 31 yilligi katta tantana qilib nishonlandi. Kunning birinchi yarmida korxonada fidokorona mehnat qilib kelayotgan bir qator Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash

xizmati xodimlari korxonaharbiyati tomonidan qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlanilar.

So'ng, korxonaharbiyati xodimlari uchun O'zbekiston davlat filarmoniyasi Farg'ona viloyati hududiy bo'linmasida bayram tashkil etildi. Bayramni jamiyat boshqaruvi raisi Dilshod Mannonov o'zining tabrik nutqi bilan ochib berdi. D.Mannonov bayram nutqida dunyodagi eng sharaflil kasb o'z ona Vatani va xalqining tinchligi uchun xizmat qilish ekanligini, bugungi O'zbekistonimizning tinchligi, xotirjamligi, barqarorligi sababchisi mard maydon o'g'lonlarimizni aytib o'tdi. Shuningdek, barcha yurtimizda tug'ilgan o'g'lonlar Vatan himoyachisi ekanligini va bizlar Amir Timur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi va yana bir qancha Vatanimiz tinchligi yo'lida jon qurbon qilgan, dunyoni larzaga solgan qahramonlar avlodlari ekanligimizdan faxrlanishimizni ta'kidladi. Bayram dasturini boshlovchi Gulnoza

Hamidova olib bordi. Kechaga Sharqiy harbiy okrug Ma'naviyat va ma'rifat markazi xodimlari tashrif buyurdilar va o'zlarining “Posbonlar” nomli qo'shiqlarini kuyladilar. Korxonaharbiyati xodimlari uchun “Gratsiya” raqs jamoasining gozal qizlari o'yinlar ijro etdilar. Tantana kechasida O'zbekiston xalq hofizi Ilhom Ibrohimov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Abdulhay Karimov, xonanda Xumora Shokirova va “Tarannum” guruhi kuy-qo'shiqlari kecha mehmonlariga yuqori kayfiyat ulashdi.

Shu o'rinda, bayram arafasida “Milliy armiyamiz – Yangi O'zbekistonning mustahkam qalqonidir” shiori ostida «Harbiy qismda bir kun» loyihasi doirasida, harbiylarga yaratilgan sharoitlar bilan tanishish maqsadida, “Farg'onaazot” aksiyadorlik jamiyati yoshlari ishtirokida harbiy qismga sayohat tashkil etildi.

E'zozxon  
ABDULLAYEVA.

## 2023-yil — Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili



Biz kimmiz?

1-maqola

### AVLONIY HAQIQATI

Ibrohimjon HALIMBEKOV,  
Prezident Administratsiyasi  
huzuridagi AOKA  
Farg'ona viloyat  
boshqarmasi boshlig'i

Har safar ta'lim haqida gap ketganda mutaffakir, ziyoli ajdodimiz Abdulla Avloniyning o'sha mashhur “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” degan so'zlarini turli minbarlarda, katta va kichik anjumanlarda, masharatlarda baralla ovoz bilan ta'kidlaymiz. Ammo, afsus, Avloniy bobomizning bu so'zlariga har doim ham amal qilmaymiz. Eng qizig'i, hatto bu so'zlar nimani anglatishi haqida jiddiyroq bosh qotirib ko'rmaymiz ham. Qiziquvchan o'quvchilarimiz hech yo'q shu safar internet resurslariga kirib hayot va mamot so'zlarining lug'aviy ma'nosini bir qidirib ko'rsalar, yaxshi bo'lar edi degan umiddamiz. Koshki, hech yo'q shundan keyin gap nima haqida ketayotganligini teranroq anglab olsalar...

Demak, tarbiya bu — yo hayot, yo o'lim (ba'zi manbalarda o'lindan keyingi hayot ma'nosini) demak. O'zbek tilidagi o'lim so'zi birmuncha sovuqroq va odamni hushyor torttiradigan darajada jaranglashi tabiiy hol. Ammo, tarbiya masalasida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolar nega aynan o'limga tenglashtirilishi bizni jiddiy o'ygatdirmog'i shart. Nega?

“Biz kimmiz?” turkumidagi maqolalarimizning birinчисini ham aynan tarbiya haqida boshlashimiz bejiz emas. To'g'ri, aslida uning egizak tushunchasi — ta'lim so'zi ham bor. Va biz bu ikki so'zni bir-biridan aslo

ayro tasavvur eta olmaymiz. Ta'lim-tarbiya tushunchasi esa, bizni beixtiyor o'qituvchi va muallimlar siymosiga yo'naltirib qo'yadi. Xuddiki, ta'lim berayotgan o'qituvchi tarbiya berishga ham majburaydi. Aslida ham shundaymi?

O'zining bolasiga vaqt topa olmaydigan o'qituvchi zoti o'quvchilari tarbiyasi bilan ham shug'ullanishi kerakmi? Yoki u o'z fanini o'quvchilariga mukammal o'qitish g'amini yeyishi kerakmi? Savolni boshqacharoq qo'ysak. O'quvchi maktabga tarbiya olgani keladimi yoki ta'limga?

(Davomi 2-betda).

## PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASIGA MUHOJAJATNOMASIDAN XULOSA



Yurtboshimiz 22-dekabr 2022-yil kuni Oliy Majlis Qonunchilik Palatasiga Murojaatnoma qilib, o'z chiqishlarida juda ko'plab sohalarga to'xtalib o'tdilar. Mana shu murojaatnomada aynan ta'lim-tarbiya mavzusi barcha uchun kutilmagan yangiliklarga boy bo'ldi, deb o'ylayman. Davlatimiz rahbari o'z nutqini ushbu so'zlar bilan boshladilar:

(Davomi 2-betda).



# AVLONIY HAQIQATI

(Boshlanishi 1-betda).

Sizni ko'p qiynamasak-da va bu boshqotirmaga javobni keyinroq, maqolani o'qib bo'lib, xotirjam javob topishingizni tavsiya qilsak. O'z o'rnida tarbiya va unga bog'liq ayrim masalalar yuzasidan fikr aytisak degan niyatdamiz.

Bugun o'qituvchi va uning qadr-qimmatini haqida davlat siyosati darajasida tashvish cheklayotgani, amaliy harakatlarga qo'l urilgani bor gap. Bu yaxshi. Millat ta'limini yelkasiga ortgan ulug' zotlar haqida har qancha qayg'ursak arziydi. Ular shunga loyiq insonlar.

Gapirmoqchi bo'lganimiz, ana shu zotlarning hurmatiga, sha'niga rahna solayotgan ayrim ota-onalar va ularning farzandlari xatti-harakatlari haqida. Aniqroq aytganda, sho'ring qurg'ur o'qituvchining "tanobini tortib qo'yish"ga uringan ba'zi bir ota-ona yoxud o'quvchilar haqida.

Ijtimoiy tarmoqlarda bu fikrlarimizga isbotu dalil sifatida aylanib yotgan noxush videotasvirlar yetarlicha topiladi. Ular hamisha va har doim va ming afsuski, sirk tomoshasidek katta qiziqish bilan ko'riladi. Hamma shosha-pisha bir-biriga tarqatadi, "qiziqqon" yoki "befarq" "kommentariy"lar avj oladi. Kimdir o'qituvchini oqlagan, kimdir o'quvchini, kimdir esa, ota-onani. Kimdir davlatga, kimdir ta'lim tizimiga va yana kimdir qaysidir shaxslarga "mag'zava" ag'darishni boshlaydi. Xullas, voqea shu joyda yakun topadi.

Ana endi Avloniy haqiqatiga qaytsak. Nima uchun tarbiyaga Avloniy tomonidan yo hayot, yo o'lim deya nisbat berilgan? Bu o'rinda Odam Ato va Momo Havo farzandlari fojeasi - hasad tufayli o'z ukasi Hobilini o'ldirgan Qobil haqida yoxud o'z otasi Mirzo Ulug'bekning qotiliga aylangan farzand - Abdulatifni eslashning o'zi kifoya. Ularni bejiz eslamadik. Tarbiyada yo'l qo'yilgan har qanday kichik xato ham ertaga o'nglab bo'lmas fojعالarga olib kelishini tarix bizga bot-bot eslatib turadi.

Zamonaviy o'zbek oilasiga nazar tashlasak, bugun bolasini o'zining shaxsiy avtotransporti yoki shu bola uchun "yollangan", "biriktirilgan" taksi yordamida maktab ostonasigacha olib borib qo'yadigan va shu yerdan yana uyiga qaytadigan o'quvchilar hamda ularning ota-onalari ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Go'yo bu maktab emas, balki qandaydir xalqaro anjumam bo'layotgan "biznes markazi-yu", unga esa, turli mamlakatlardan tashrif buyurayotgan ishtirokchilar o'tirgan turnaqator mashinalar kortejiga o'xshaydi. Bu bolalarning qo'lida qimmat telefon bo'lishi ham tabiiy holga aylangan. To'g'ri, bu jarayon ko'proq shahar va uning atrofiga yaqin tumanlarda bor xolos, desiz. Ammo, bolasining ta'limidan ko'ra, uning o'ziga "mahliyo" bo'lib, o'rtoqlari orasida "old o'quvchi" (bilim nazarda tutilmayapti) bo'lib yurishini muhim hisoblagan bugun ota-onalar ko'pchilikni tashkil etadi.

Bilim yoki ta'lim masalasiga kelsak, yana o'sha sho'ring qurg'ur o'qituvchi o'quvchisining haqiqiy bilimiga yarasha real bahoni qo'ya olmaydi. "O'zidan ketib qolgan" o'quvchisini tartibga chaqira olmaydi. Chunki, ularning "polvon" ota-onalari "qilich"ini ko'tarib, o'qituvchining "esini kirgizib qo'ygani" shamol kabi yetib keladi.

Men bu gaplarni osmondan olib gapirayotganim yo'q. Yaqin-yaqingacha asosiy ishimdan tashqari, Farg'ona shahridagi yirik maktablardan biridagi rus sinflarida ikkinchi sinfdan o'ninchi sinfgacha o'zbek tilidan dars berganman. Bolalarning sho'xliklari o'z yo'l'iga. Ammo, bu yerda juda qiziq manzaralarga duch kelganman.

Chorak baholari yopilayotganda men - dunyo bexabar, o'quvchilarga haqiqiy bilimlariga yarasha baholarini qo'ya boshlaganman. Shunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining "zavuch"i kelib, juda katta tashvish bilan gapirga ketdi: - "Nimalar qilib qo'ydingiz?!

O'quvchilarning baholarini oshirib qo'yishingiz kerak edi. Hammasiga past baho qo'yib tashlabsiz. Endi nima qilaman?! Siz ularning ota-onalarini bilamaysiz-ku! Ayniqsa, falonchiyev va pistonchiyevlarni. Sizdan iltimos, zudlik bilan jurnallardagi baholarni o'zgartirib chiqing!"

Men esa, hayratda qolib: "Axir qanday qilib? Butun boshli jurnalni qanday qilib o'zgartiraman?" - deya so'radim. Zavuch opamiz esa, "Siz xo'p desangiz bo'ldi, qizlarga beraman, u yog'ini o'z'lari keltirishadi" - deya javob berdi shosha-pisha. To'g'risi, opaga rahmim kelganidan "mayli, shunchalik qo'rqaysiz, nima ham der edim" - deb javob berishga majbur bo'ldim.

Qizig'i shundaki, men yo'ngan baholar haqidagi ma'lumotlar allaqachon ota-onalarga "yetib" borgan ekan. Va kunning ikkinchi yarmida "zavuch" opamiz hamda "esi yo'q" o'qituvchi (ya'ni, mening) "esini kirgizib qo'yish uchun" yetib kelgan "jangovor" ota-onalar ishtirokida "qirg'inbarot" jang bo'lib o'tdi.

Aniqrog'i, tomog'i yirtilguncha bizga o'shirqan ota-onalarning "tomoshasini" sabr-toqat bilan kuzatishga majbur bo'ldik. Bolasi nima uchun past baho olgani yoki darslarni nima uchun o'zlashtirmayotgani mutlaqo qiziq bo'lmagan o'sha ota-onalarning bolalari haqida, ularning tarbiyalari haqida nima deyish mumkin? Zero, aynan shu bolalar ota-onalari "zo'ravonligidan" kuch olib, xuddi shu ohangda o'qituvchilariga mensimaslik nigohi bilan qarashlariga zarracha shubha yo'q.

Xayriyatki, u kunlar ortda qola boshladi. Davlat bu masalaga ham jiddiy e'tibor qaratdi. Ammo, bu toifa ota-onalar va bolalar suvday parlanib, osmogacha uchib ketgani yoki ularning dunyoqarashlari ham o'zgarib qolgani yo'q. Bolaligim, yoshligim va bugungi kunlarni taqqoslaganda odamlarimiz ko'p va xo'p yaxshi yashay boshlaganliklarini hech kim inkor eta olmaydi. Deyarli har bir xonadonda mashina bor. Ko'pchilik oilalar hatto kechki ovqatni ham kafe, restoranlarda yeydigan bo'lishdi. Nimasi yomon deysizmi? Odamlar farovon yashasa yaxshi-ku deysizmi? Albatta, odamlar munosib hayot kechirishlari juda ham yaxshi.

Ammo bu to'kinlik ortida dunyoni faqat pulda o'lchaydigan "tarbiya" ham paydo bo'ldi-ki, uning qo'rqinchi oqibatlari asta-sekin hayotimizga "sizib" kira boshladi. Er va totinning bosh maqsadi faqat moddiy ta'minot yoki moddiyat bo'lib, tarbiya ikkinchi masalaga, balki umuman "yo'q" masalaga aylanib qolishi xavotirli jarayon emasmi aslida? Yaxshi yeb-ichish, yaxshi kiyinish, yaxshi yashash degani tarbiya emas-da axir...

Nochor kun kechirsa-da, boshqalardan yordam so'rashga or qilib, sabr-toqat bilan oldinga intilgan va tarbiyasi "mustahkam"ligi bois, so'r yutuqlarga erishganlar atrofimiz to'la. Aslida qiyinchilik odamni tarbiyalashi ham sir emas. Har bir yutug'iga mehnat va mashaqqat bilan erishgan oilalar tarbiyasi ham o'zgacha. Yaxshiyam-ki, ular ko'p. Sifatli ta'lim haqida gap ketar ekan, o'qituvchi hamda muallimlarimiz faqat va faqat ta'lim ishi bilan shug'ullanishlari, ular turli xil tazyiqlardan, tahdidlardan, tashvishlardan yiroq bo'lishi haqida aytilyotgan fikrlar ming karra haq. Bor umid - ularning bexato amalga oshida.

Ota-onalar esa, Avloniy hazratlarining tarbiya yo hayot, yo o'lim ekanligi haqidagi so'zlarini katta harflar bilan yozib, uylari to'riga ilib qo'yalsar, ularning ma'nosini qayta-qayta farzandlari bilan muhkama qilsalar va albatta tarbiya ilmiga amal qilsalar nur ustiga a'lo nur bo'lar edi.

Hozircha so'nggi so'z shuki, o'qituvchilarimiz ham endi o'zgarimg'i shart. Bu haqida esa, keyingi maqolamizda gaplashamiz. Zero, bu mavzu bugungidan kam bo'lmagan muhimlikka daxldor.

## PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASIGA MUROJAATNOMASIDAN XULOSA



Jahongir FOZILOV, "Farg'onaazot" Ajda qutqaruv otryadi profilaktika inspektori:

— "Najot - ta'limda, najot - tarbiyada, najot - bilimda. Chunki, barcha egzu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi". Shu bois, birinchi navbatda, e'tiborni Yangi

O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratamiz, deya ta'kidlab o'tdilar. Shuningdek, kirib kelayotgan 2023-yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" yili deb nomlash taklifini berib o'tdilar.

Bu so'zlar bejiz emas. So'nggi yillarda mamlakatimizda o'z kasbini mehr bilan o'tab kelayotgan ustozlarimizga, aksariyat ota - onalar tomonidan norozilik kayfiyatida ularga do'q-po'pisa, haqorat qilish, hurmatsizlik qilish kabi holatlarini uchratishimiz mumkin. Mana shunday salbiy omillarni oldini olish maqsadida ham ustozlarga ularning maqomi, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishni Konstitutsiyamizga kiritilishini taklif etish ham insonni xursand qiladi.

Hozirgi kunda xalqaro ekspertizadan o'tkazilib, mamlakatimizda sinovdan o'tayotgan ta'lim metodikasini kelgusi yildan boshlab boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qo'llashni yo'lga qo'yishni aytib o'tdilar. Yangi yildan maktab ta'limini xalqaro ta'lim dasturlari asosida butunlay isloh qilinishi qo'shib qo'ydilar.

Shu o'rinda, bu ishlarni yo'lga qo'yish uchun yangi darsliklarni ishlab chiqish,

lig'or ta'lim standartlari va metodikalarini joriy etish uchun alohida ilmiy institut va laboratoriyalar tashkil qilinishi, milliy o'zligimiz timsoli, ma'naviyatimiz asosi bo'lgan ona tilmizga ham e'tiborni kuchaytirilishi shaxsan meni juda mamnun etdi.

Hozirgi ochiqlik siyosati, chet el investitsiyalari va yangi korxonalarining ortib borishi, biz yoshlar uchun zamonaviy bilimlar va xorijiy tillarni o'rganib borishimizga yana bir imkoniyat, e'tibor va talab deb bemalol ayta olaman. Yurtboshimiz kelgusida 70 ta yangi maktab qurilishini, 460 tasi kengaytirilishini, xususiy investitsiyalar ishtirokida 100 ta maktab qurilishini va kelajakda esa ularning sonini 1000 tagacha yetkazishlarini ham aytib o'tdilar. Ta'lim sohasidagi navbatdagi muhim o'yinlash, bu - yoshlarning zamonaviy kasb-hunar egallashi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Zero, hozirgi kunimizda maktab bitiruvchilarining 50% mehnat bozoriga hech qanday kasbga ega bo'lmasdan kirib kelayotgani hammamizni o'yantiradi.

Joriy masalalarni nazarda tutgan holda iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlashni

kengaytirilishi, kimyo sanoati, elektr texnikasi, transport va energetika sohalarida nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan birga, alohida muhandislik maktablari tashkil qilinishi ham yurtimizda kelgusida katta istiqbolli ishlar amalga oshirilishini ko'rsatib turmoqda. Bu tizim bizda hozirgacha bo'lmagan. Lo'nda qilib aytganda, yangi zamon injenerlarini tayyorlash tizimi yaratilmoqda. Maktab ta'limini isloh qilish uni takomillashtirish, tizimini tubdan isloh qilish uchun bundandana yuqori e'tibor bo'lmasa kerak deb o'ylayman. Kelajagimiz poydevorlarini mazkur imkoniyatlarda o'qitish, bilim olishlari, o'z kasblarini yetuk mutaxassislari bo'lishlari uchun yaratilayotgan sharoitlar Yangi O'zbekistonimizda inson ulug'ligining belgisi deb bilaman.

"Yangi O'zbekiston - maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi", desam mubolag'a bo'lmaydi. Men o'z fikrimda faqat maktab mavzusida to'xtalib o'tmoqdaman. Yurtboshimiz esa maktabgacha ta'lim va oliyog' mavzularida ham keng fikr mulohazalarini ularda kutilayotgan o'zgarishlarni aytib o'tdilar.

## MUROJAATCHILARNING 61 MLRD. SO'M MABLAG'LARI ORTGA QAYTARILDI

**Adliya vazirligi tizimida qisqa vaqt mobaynida qonun ijodkorligi va aholi murojaatlari va shikoyatlar bilan ishlash borasida o'ziga xos maktab yaratildi. Bu tajriba esa o'z samarasini berayotir.**  
**Aholidan kelayotgan murojaatlarni, bir so'z bilan aytganda, oyna deyish mumkin. U jamiyatimizni qanday bo'lsa, shundayligicha aks ettiradi. Tahlil va xulosa qilish imkonini beradi.**  
**Birgina Farg'ona viloyati adliya boshqarmasi va uning quyi tizimlariga o'tgan 2022-yil davomida 12 ming 431 ta murojaat kirib tushdi. E'tiborli jihati shundaki, adliya organlari tomonidan ko'rilgan huquqiy ta'sir choralar natijasida 61 mlrd. 988 mln. so'm miqdordagi pul mablag'lari o'z egalarga qonuniy tartibda qaytarilgan.**  
**Ta'kidlash lozimki, aksariyat murojaatlar mehnat qonunchiligi va ish beruvchi va xodimlar o'rtasidagi munosabatlarda aks etmoqda. Masalan, o'tgan yilda kelib tushgan murojaatlarning 5 mingga yaqini mehnat munosabatlari va nizolariga oid. 4 mingdan oshig'i esa kommunal, soliq, bank, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa sohalarga taalluqli.**

### MUROJAATLARDA AKS ETGAN HAYOT

Halol peshona teri evaziga jamg'arilgan pullar inson uchun qadrlir. Biroq qonunan o'zingizga tegishli bo'lgan pullarni mas'ullar e'tiborsizlik tufayli belgilangan tartibda to'lab bermasa vakolatli organlarga murojaat qilish ayni muddao.  
Farg'ona viloyatining Furqat tumanida ana shunday holat yuz berdi. Gap shundaki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-dekabrda 779-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari xodimlarini rag'batlantirish jamg'armasi to'g'risida" gi Nizomning 15-bandiga asosan, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari xodimlarini reyting baholash tizimi joriy qilingan. Bu baholash orqali mahalla va nuroniyalarni qo'llab-quvvatlash bo'limi tomonidan har oylik ustamalari belgilanishi nazarda tutilgan.  
Vaholanki, tuman Mahalla va nuroniyalarni qo'llab quvvatlash bo'limi tomonidan Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari xodimlarining reyting baholash tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lsada, ularga ustama pullari

to'lab berilmagan.

Ushbu aniqlangan holat yuzasidan tuman adliya bo'limi tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda ta'sir chorasi kiritildi. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari xodimlarining 107 mln. so'm ustama pullari to'lab berilishi ta'minlandi.

Oltiariq tumanida istiqomat qiluvchi Dilorom Vaxobiddinova 2019-yil fevral oyida uy-joyga muxtoj oilalar uchun o'tkazilgan onlayn savdolarida 2-gruh nogironligi bor ukasiga yer sotib oladi. Biroq uning xarid qilgan va qonunan o'ziga tegishli yerida uy-joy qurish uchun ko'plab byurokratik to'siqlar yuzaga keldi. Muammolar, sansalorliklar esa naqd to'rt yil davom etdi. Tuman adliya bo'limi ushbu ko'p yillik muammoni 20 kun mobaynida sud tartibida ijobiy hal etdi.

Qo'qon shahar adliya bo'limi tomonidan shahar Xalq ta'limi bo'limiga kiritilgan taqdimnomaga asosan, shahar Xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi 41 ta umumta'lim maktablarining 59 nafar kutubxonada mudiralar va kutubxonachilariga 307 mln. 529 ming so'm ustamalari to'lab berilishi ta'minlandi.

Shuningdek, Beshariq tuman adliya bo'limi tomonidan o'tkazilgan monitoring davomida o'n ikki

yoshga to'lmagan ikki va undan ortiq bolasi bor 118 nafar xodimga har yili uch ish kunidan kam bo'lmagan muddat bilan haq to'lanadigan qo'shimcha ta'til berilmaganligi aniqlandi.

Toshloq tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan 675 nafar tibbiyot xodimga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-35 sonli farmoyishiga asosan, mehnat ta'til kunlari 5 ish kuniga qisqartirilib, xodimga 5 ish kuniga kamaytirilgan xolda mehnat ta'tili puli hisoblanib to'lab berilib, asstiz ravishda 675 nafar tibbiyot xodimlaridan 292 mln 881 ming so'm mehnat ta'tili puli ushlab qolingan.

Mehnat kodeksining 133-moddasiga ko'ra barcha xodimlarga, shu jumladan o'rindoshlik asosida ishlayotgan xodimga, dam olish va ish qobiliyatini tiklash uchun ish joyi (lavozimi) va o'rtacha ish haqi saqlangan holda yillik mehnat ta'tillari beriladi. Taqdimnoma natijasida mehnat ta'tiliga chiqqan xodimlarga to'lanmay qolgan jami 292 mln 881 ming so'm to'lab berildi.

Yuqorida keltirilgan murojaatlardan xulosa qilish mumkinki, mehnat munosabatlari haquqiy savodxonlikni oshirish hayotiy zarurata aylanib bormoqda. Bu esa adliya organlariga yanada katta mas'uliyat yuklaydi.

-Farg'ona viloyat adliya boshqarmasida o'tgan yil davomida tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy sohada huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish, inson huquqlarini himoya qilish, davlat xizmatlarini ko'rsatish va boshqa sohalarida jami 1 ming 817 marta nazorat tadbirlari o'tkazildi va viloyatda 62 mingdan ortiq qonun buzilishi holatlari aniqlandi. 39 ming 57 ta hujjatlar ijrosi bekor qilindi. Mansabdor shaxslarining 2 ming 738 ta harakatlari to'xtatildi. Shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarni manfaatini ko'zlab sudlarga 34 mlrd. 240 mln so'mlik 2 ming 118 ta da'vo arizalar kiritildi.

**Abdumannop BURIYEV, Farg'ona viloyat adliya boshqarmasi boshlig'i**

## KORXONALARNI YONG'INDAN MUHOFAZA QILISHNING ASOSIY OMILI

**Bu borada mutaxassislar uzoq yillar bosh qotrib kelishgan va xulosa o'rnida yong'indan asrashning bosh omili inson, agar inson yong'in xavfsizligiga loqayd munosabatda bo'larkan, yong'inlar sodir bo'laveradi, degan fikrni bayon etishgan.**

Ilg'or texnika va texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish korxonalarida yong'inlarni kelib chiqishiga esa birgina loqayt munosabat sabab bo'lmaydi, balki bunda korxonada ishlovchining vazifasi, lavozimidan qat'i nazar uning yong'in xavfsizligi qoidalarini bilmasligi, yong'inlarni kelib chiqish omillariga nisbatan o'quvsizligi yoki aniqrog'i savotsizligi ham sabab bo'ladi. Mana shu biz nazarda tutgan savotsizlik esa ishlab chiqarish jarayonida texnika va yong'in xavfsizligi qoidalarining buzilishiga, qolaversa, mehnat muhofazasiga oid qoidalariga zid holatlarning yuzaga kelishiga olib keladi.

O'tgan yillar mobaynida respublikamizdagi har qancha sanoat korxonalaridagi yong'inga qarshi holatlarini, ayniqsa ishchi xizmachilarning yong'in texnika xavfsizligi qoidalarini qay darajada bilishlari hamda amal qilishlarini o'rganish va taqiz etish mobaynida olingan xulosalar fikrimizning tasdiqlaydi. Ishlab chiqarish obyektlarida yong'inlarning kelib chiqish omillarining o'rganish va taqiz etish, shuningdek, obyektlar ishchi-xizmachilari, qolaversa, korxonra rahbarlarining ish jarayonida yong'in xavfsizligi qoida talablarining bajarilishining ta'minlashga oid tadbirlarining o'rganilishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, u kelgusida ishlab chiqarish obyektlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inlarni oldini olishga yordam beradi. Yani, u yoki bu sohadagi ishlab chiqarish bilan

bog'liq bo'lgan har qanday korxonaning mahsulot tayyorlash yoki yetkazib berish jarayonida texnika va yong'in xavfsizligi qoida talablarining bajarilishini ta'minlash holatidagi kamchiliklar aynan yong'in-profilaktika ko'rikleri hamda tekshirishlar mobaynida aniqlanadi hamda ularga nisbatan chora ko'rinishi bo'yicha tadbirlar belgilanadi. Aniqlangan yong'inga olib keluvchi holatlarning bartaraf etilishi uchun esa birinchi navbatda korxonra rahbari (direktor, bosh muhandis) mas'uldird. Korxonra rahbari ishlab chiqarish jarayonida texnologiyalarga amal qilinishiga e'tiborini qaratisi bilan bir vaqtda yong'in xavfsizligi qoida talablarining bajarilishini ham muntazam nazorat etib borishga, yong'inga olib keluvchi holat yuzaga kelgan vaqtda unga nisbatan tezda chora ko'rish zarur va bu uning zimmasidagi majburiyatidir. Qonunda tashkilotlar, korxonalar va muassasalar rahbarlarining yong'in xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan barcha tadbirlarni o'z huquq doirasida amalga oshirib boradi. Uzoq yillar mobaynida ishlatilib kelingan va o'z davrida texnik ko'rikdan o'tkazilib, soz holatga keltirilgan yoki davr talabiga mutloqo javob bermay qolgan texnik asbob uskunalaridan foydalanishga yo'l qo'yilmaganligi oqibatida o'tgan yillar mobaynida respublikamizdagi bir qator yirik korxonalarda yong'in hodisalari sodir bo'ldi. Bu bugungi ishlab chiqarish korxonalarini rahbarlari uchun saboq bo'lishi lozim. Yani, har bir ish joyi hamda

